



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 9-sentabr, shanba,
107 (23.828)-son

**KUN
HIKMATI**

Chiroyli
emas,
samimiy
soʻz obroʻ
keltiradi

1913-yil aprel oyidan chiqqan boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

DUNYO XALQLARINING BUGUNI VA ERTASIGA DAXLDOR MASALA

Samarqand shahrida 7-8-sentabr kunlari Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan yil Samarqand mezbonlik qilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining majlisida bugungi kunda dunyo miqyosida global ahamiyat kasb etayotgan oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga alohida e'tibor qaratib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlagandi. Ushbu hayotiy masalalarni keng muhokama etish maqsadida xalqaro konferensiya o'tkazishni taklif qilgandi.



Mazkur tashabbus ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti - FAO texnik ko'magida Samarqandda Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Tadbirda dunyoning 32 davlatidan 620 nafardan ziyod xorijiy mehmon hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi.

Konferensiyaning tantanalari o'z ichida marosimida dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman qatnashchilariga murojaatini Bosh vazir A.Aripov o'qib eshittirdi.

So'nggi o'n yillarda "yashil inqilob" va innovatsion texnologiyalar keng joriy etilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori keskin oshdi, tobora ko'payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi, - deyiladi murojaatda. - Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimi janjirlari uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo'ldi.

Bundan rivojlanayotgan mamlakatlar ko'proq jabr ko'rmoqda. Global iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga kiritilayotgan investitsiya miqdori kamayishi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldiryapti.

Marosimda so'zga chiqqan Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO Bosh direktori Syuy Dun'yuy xalqaro anjumaning yuksak saviyada tashkil etilgan uchun O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi va tadbirning ahamiyatiga to'xtaldi.

Men O'zbekistonni mintaqadagi eng yaxshi va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan joy ekaniga ishonch hosil qilganman, - dedi Syuy Dun'yuy. - O'zbekistondagi bugungi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nafaqat mintaqada, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham haqli ravishda e'tirof etilmoqda. Qolaversa, bu ko'hna zamin qadimiy sivilizatsiyalar beshigi va bugungi kundagi sa'y-harakatlar, rivojlanish jarayoni tufayli, albatta, yana o'sha darajaga chiqishiga ishonaman. Ayni dam mamlakatda qishloq xo'jaligini zamonaviy talablar darajasida taraqqiy ettirish, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish borasida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan ishlar BMT Taraqqiyot dasturi talablariga to'la mos keladi.

Anjumanda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Qurg'oqchil hududlarda qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro markaz (IKARDA) rahbarlari ham so'zga chiqib, mazkur forum va unda muhokama etiladi-

gan masalalar butun dunyo xalqlarining bugungi va ertangi kuniga daxldorligini ta'kidladilar.

Yalpi majlisdan so'ng konferensiyaning sessiya yig'ilishlari bilan davom etdi.

Sessiyalarda har bir davlat vakillari o'z mamlakatlari misolida dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni keng joriy etish, atrof-muhit musafoligini saqlash, yerdan samarali foydalanish kabi masalalar yuzasidan fikr bildirdi.

Butun dunyo xalqlari uchun, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish maqsadida ekspres-yo'laklar ochishga xizmat qiluvchi "Nol ochlik" darajasiga erishish tamoyilini aks ettirgan turli mavzulardagi muhokama, munozaralar bo'lib o'tdi.

Anjuman doirasida tashkil etilgan O'zbekiston qishloq xo'jaligi salohiyatini aks ettirgan ko'rgazmada mamlakatimizning barcha hududlaridan qishloq xo'jaligi korxonalarini va ishlab chiqaruvchilarni, klasterlar vakillari o'z mahsulot va xizmatlari bilan ishtirok etdi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikalari, sohaga joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalar namoyishi qilinmoqda.

Kunning ikkinchi yarmida sessiyalarda muhokama qilingan masalalar asosida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Pandemiya va boshqa turli global chaqiriqlar bizni eski yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishga ruhlantirmoqda, fermerlik harakati va agrobiznesni rag'batlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligini yuritishning yangi uslublari naqadar muhimligini isbotlayapti, - dedi mamlakatimiz qishloq xo'jaligi vaziri Aziz Voitov. - Hozir O'zbekistonda agrooziq-ovqat tarmog'ini qayta tashkil etish jarayoni kechmoqda. Soha salohiyatini yanada kuchaytirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida jahonning yetakchi olimlarini jalb etish rejalashtirilgan. Yuqori sifatli oziq-ovqat bilan imkon darajasida ko'proq insonlar qamrab olinishini ta'minlash uchun yangi yechim, innovatsiyalar talab qilinadi. Muhokamalar markazida bo'lgan shu masalalar Samarqand deklaratsiyasining ham asosini tashkil qiladi.

Konferensiya doirasida 8-sentabr kuni O'zbekiston qishloq xo'jaligi investitsiya forumi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz agrar sohasida ayni paytda hayotda tatbiq etilayotgan loyihalar va kelgusidagi rejalar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, mazkur yo'nalishda xorijlik investorlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar tahlil qilinib, istiqbolli vazifalar belgilandi.

Konferensiya qatnashchilari viloyatimizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini bilan tanishdi hamda tarixiy-madaniy yodgorliklarni tomosha qildi.

G'olib HASANOV.



Osiyo talabalar forumi

Samarqandda "O'zbekiston-Osiyo - 2023" VI Osiyo talabalar forumi o'tkazildi. Forumda Rossiya, Yaponiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Belarus kabi davlatlardan 120 dan ortiq talaba ishtirok etdi.

Samarqand davlat universiteti rektori, Osiyo universitetlari assotsiatsiyasi prezidenti Rustam Xolmurodov forumning ochilish marosimida yoshlar jamiyatda muhim o'rin tutishi, ayniqsa, ilm o'layotgan talabalar kelajak yaratuvchilari ekanini ta'kidladi. An'anaga muvofiq, forum koor-

dinatori Oltoy davlat universiteti Samarqand davlat universitetiga anjumaning faoliyatini baholash uchun reyting daftarchasini topshirdi.

Tadbirning ochilishida talabalar o'zlarining milliy kuy-qo'shiqlarini ijro etdi.

Janubiy Qozog'iston davlat universitetidan keldik, - deydi Kamila Yessingeldinova. - Ilk bor xalqaro forumda ishtirok etmoqdaman. Barcha talabalarning kayfiyati a'lo darajada. Menejment sohasida o'qishim bo'is "Ilmiy va innovatsion inqilob orqali kelajak sari" nomli shu'bada ishtirok etdim. Yaxshi ma'ruzalarni eshitdim va bu foydali bo'ldi. Ushbu ma'lumotlarni chuqurroq o'rganib, ilmiy ish qilishni niyat qildim.

Xalqaro forumning universitetimizda o'tkazilishi menga faxr bag'ishladi, - deydi SamDU Muhandislik fizikasi instituti talabasi Nafisa Rahmonova. - Forum doirasida fizika sohasiga qiziqadigan va ilmiy ish olib borayotgan xorijlik talabalar bilan tanishdim. Bir-birimiz bilan hamkorlik qilishni rejalashtirdik. Forum talabalar hamkorligini kengaytirish va rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim, ilmiy, madaniy, kasbiy faoliyatning turli sohalarda talabalar va Osiyo mamlakatlari ijodkor faol yoshlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos muloqot maydoniga aylandi.

Samarqand davlat universiteti axborot xizmati.

Jamoat transporti soni yana ko'payadi

Aholiga jamoat transporti xizmati ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida viloyat transport boshqarmasi tashabbusi bilan jurnalist va blogerlar uchun press-tur tashkil etildi.

Dastlab "Samarqandyo'lovchitrans" davlat korxonasida bo'lib, uning faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Mazkur korxonada "Yashil shahar" loyihasiga asosan xorijdan yuz dona elektrobus keltirishni o'z zimmasiga olgan bo'lib, hozircha ularning 6 tasi Samarqand shahri ichki yo'nalishlarida qatnamoqda.

Elektrobuslar M-1, ya'ni, "Temiryo'l vokzali - Samarqand xalqaro aeroporti" yo'nalishi bo'yab kuniga 8 marta qatnab, 900-1000 nafarga yaqin yo'lovchini o'z manziliga yetkazmoqda, - deydi "Samarqandyo'lovchitrans" davlat korxonasi bosh muhandisi Abdulkarim Samatov. - Yil yakunigacha yana 94 ta elektrobus va 50 ta zaryadlash uskunalari keltirish rejamiz bor. Ayni paytda 40 ga yaqin tajribali haydovchini sinovdan o'tkazib, ishga qabul qilganmiz.



(Davomi 2-sahifada) >>>



Nufuzli kompaniyalar tarixi kichik va o'rta biznesdan boshlangan

"Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir". Sohibqiron Amir Temur bobomizning bu gapi zamirida katta ma'no mujassam. Tadbirkor va ishbilardon kishilar mamlakatning tayanchi, jamiy taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashda asosiy kuchdirlar.

Kattaqo'rg'onlik tadbirkor Anvar Norboev ana shunday shijoatli tadbirkorlardan. U O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18-avgustdagi farmoniga muvofiq, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Bugun uning faoliyati tumanda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan, endi ish faoliyatini yo'lga qo'yish niyatida bo'lgan yoshlarga o'rnak bo'lyapti. Tadbirkor tumanning bir nechta hududlarida tadbirkorlikka qiziquvchi yoshlar va tumanda faoliyat olib borayotgan ishbilardonlar bilan uchrashib, yurtimizda keyingi yillarda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida o'z faoliyati misolida so'zlab berdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Samarqand shahrida jamoat transportida yurish narxlarini o'zgartirdi

Viloyat hokimi E.Turdimovning qaroriga ko'ra, 2023-yil 6-sentabrdan boshlab Samarqand shahar jamoat transportida yo'lkira narxi o'zgartirdi.

Endi yo'lovchilar shahar hududida shahar yo'lovchi transporti - avtobus, elektrobus va tramvaylarda qatnovni amalga oshirish uchun bir yo'lovchi uchun

qatnov naqd pul va bank kartalari orqali amalga oshirilganda 2 MING SO'M, bir yo'lovchi uchun qatnov transport kartalari (ATTO) orqali amalga oshirilganida esa 1600 SO'M qilib belgilandi.

Qarorga asosan aholi, pensioner va nogironlar, talaba va o'quvchilar hamda jamoat transportidan bepul foydalanish huquqiga ega shaxslar uchun alohida tariflar belgilandi.

Munosabat

AJDODLARIMIZGA XOS FAZILAT

Xalqimiz mustaqillikka erishgan kuni eng ulug', eng aziz bayram sifatida nishonlaydi. Millatimiz ushbu sanani qadrlab, e'zozlab kelayotganiga ham, mana, 32 yil to'ldi. Bu tarix charxpalagi oldida qisqa davr bo'lsa-da, shu vaqt mobaynida olib borilgan to'g'ri va oqilona siyosat tufayli yurtimizda asrlarga tatigulik o'zgarish va yangilanishlar ro'y berdi. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Xalqimizning turmush tarzi yaxshilanib, farovon hayot kechirishi ta'minlandi. Barcha go'shalarimiz obod va orasta maskanga aylantirildi. Shubhasiz, bularning barchasi istiqloq tufaylidir.

Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan Mustaqillik bayrami tadbirida davlatimiz rahbari bu kunlarga yetguncha xalqimiz bir qancha sinovlarni boshidan kechirgani, ko'plab qiyinchilik va mashaqqatlar birgalikda yengib o'tilganini alohida qayd etdi.

Chindan, O'zbekiston o'z suvereniteti, davlat mustaqilligiga osonlik bilan erishgani yo'q. Bu yo'lda ajdodlarimizning siyosiy va ma'rifiy intilishlari so'nggi bir yarim asr davomida deyarli to'xtamadi. Hurriyat uchun kurashgan ko'plab vatandoshlarimiz qatag'on qilindi, istiqloqla intilgan milliy qahramonlarimiz zulm va zo'ravonlik qurboni bo'ldi.

Ilgari "o'zbek" deyiladigan faqat erta-kech paxta dalasida mehnat qiladigan zahmatkash xalqimiz tasavvur qilingan. O'zi oq, mehnati qora bu paxta hamda paxta hukmronligi hamyurtlarimizga bir qancha kulfat va balalar olib keldi. Paxta siyosati Orolni quritdi, ekologiyamizni inqirozga olib keldi, iqtisodiyotimizni, ta'lim tizimini izdan chiqardi. Oqibatda bir necha avlod chalasavod bo'lib voyaga yetdi.

Ko'p millatli xalqimizning o'zaro hamjihatlikda, ahillikda qilayotgan fidokorona mehnati tufayli bugun Yangi O'zbekiston orzusi haqiqatga aylanyapti. Xalqaro maydonda Vatanimizga nisbatan hurmat va e'tibor tobora ortmoqda. Qo'shni mamlakatlar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar sabab, yillar davomida yechimini kutayotgan muammolarga yechim topilyapti. Chunki Markaziy Osiyo davlatlarining barcha sohalardagi aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi.

Siyosiy mustaqillik zamirida avvalo, iqtisodiy mustaqillik yotishi hech birimizga sir emas. So'nggi 6 yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 barbardan ziyod, tadbirkorlik subyektlari soni 2 karra ko'paygani, sanoatdagi o'sish 40 foizdan oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Quvonarlisi, bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining 5 ta asosiy yo'nalishini belgilab oldi. Unda ta'lim sohasini rivojlantirish birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qayd etildi. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib, hech qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erisha olmaydi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir".

Davlatimiz rahbari aytganidek, O'zbekiston butun dunyoga faqat xomashyo emas, avvalo ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug' zotlarning Vatani. Hech shubhasiz, ularga xos bo'lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an'analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda.

Akbar AXTAMOV, O'zMTDP viloyat kengashi raisi.

Nufuzli kompaniyalar tarixi kichik va o'rta biznesdan boshlangan

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, soha subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan mutlaqo yangi tizim yaratildi, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ko'plab byurokratik to'siqlar bartaraf etildi, - deydi A.Norboyev. - Ishning ko'zini bilgan, salohiyatli tadbirkorlarga davlatimiz rahbari alohida e'tibor qaratyapti.

Bugun tadbirkor rahbarlik qilayotgan "Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" yiliga 1200 dona import o'rni bo'suvchi transformatorlar ishlab chiqaradi. Zavodda 80 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Korxonada qoshida tikuvchilik fabrikasi ham tashkil qilingan bo'lib, unda 50 nafar xotin-qiz ish bilan band. Bugungi kunda zavodda 15 turdagi transformator va tikuvchilik fabrikasida esa 50 turdan ortiq kiyim-kechak tayyorlanyapti.

Menga yurtboshimiz "Shuhrat" medalini topshirar ekan, "Anvar, ishlarining yaxshimi? Endi yangiliklarni ko'proq qilishing, ko'proq o'z ustingda ishlashing kerak", deya tilak bildirdi, - deydi tadbirkor

kor yangi rejalar haqida gapirib. - Bunday ishonch va e'tibor har qanday kishini ruhlantiradi. Ishimizni yangi bosqichga olib chiqishga harakat qilayapmiz. Xususan, 2025-yilgacha korxonada faoliyatini kengaytirib, 500 kishini ish bilan band qilishni maqsad qildik.

Ma'lumki, aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlikning o'rni katta. Bu yo'nalishda qishloq xo'jaligi sohasida imkoniyatlar keng. Tadbirkor tumanida yirik tarmoqlardan biri bo'lgan umumchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda 34 gektar lalmi maydonda zamonaviy usulda uzumzor tashkil qildi. Bugungi kunda erta hosilga kiruvchi navning 10 gektari hosil bera boshladi. Uzumzorda 12 ta doimiy ish o'rni yaratilgan.

Xalqimizda "Bir yil keyinni o'ylasang, don, o'n yil keyinni o'ylasang, daraxt ek, yuz yil narini ko'rmoqchi bo'lsang, farzand tarbiyala", degan hikmat bor. Bundan ko'rinadiki, ilmi, har tomonlama sog'lom avlodni kamol toptirish zamirida katta ezgu g'oya bor. Shundan kelib chiqib, bugun davlatimiz tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilyapti. Quvonarlisi, tadbirkorlar bu

ishda kamarbasta bo'lyapti.

A.Norboyev ham tuman yoshlarining bilim olishi, kelajakda turli sohalarda salohiyatli kadr bo'lib yetishishini maqsad qilgan holda ta'limga sarmoya kiritmoqda. O'tgan yili shu maqsadda tumanning Meylxo'ja mahallasi hududida quvvati 288 o'rinni "WILLAGE SCHOOL" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini ishga tushirdi. Natijada 40 ta yangi ish o'rni yaratdi. Hozirda mazkur ta'lim muassasasida 300 dan ziyod o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. Shuningdek, muassasada chet tillari, shaxmat-shahka, gimnastika to'garaklari tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda bir gapni alohida ta'kidladilar, - deydi tajribali tadbirkor A.Norboyev. - "Ma'lumki, kichik biznes - bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuch. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan". Bugun o'z tadbirkorligini boshlayotgan yoshlar bu gaplarning mag'zini chaqsa, ayni shunday ezgu maqsadni ko'zlasa, kelgusida o'zlari istagan natijalarga, albatta erishadi.

S.MARDIYEV.



Prezident tashrifidan so'ng

YANGI MAJMUUA

SAMARQANDNING YANA BIR DRAYVERIGA AYLANMOQDA

Prezidentimiz 24-avgust kuni viloyatimizga tashrifi chog'ida Samarqand tumanida "Nurli Kelajak Ishonch Servis" va "Qayumov stroy invest" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Bugungi kunda jamiyat tomonidan 37 gektar maydonda savdo, sanoat va servis majmuasi qurilishi doirasida qiymati 2 trillion 79 milliard so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar uchun 42 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya mablag'lari jalb etilgan. Qariyb 10 mingta ish o'rni yaratiladigan loyihalarida yillik tovar aylanmasi 2,2 trillion so'mni, yillik soliq tushumi esa 78,9 milliard so'mni tashkil etadi.

Ulardan birinchisi - 11 gektar maydondagi avtomobillar ehtiyot qismlari bozori tez kunlarda foydalalanishga topshiriladi. Qiymati 500 milliard so'm bo'lgan ushbu markazdan 751 ta savdo do'koni o'rin olgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, yangi markazning yillik tovar aylanmasi hajmi 560 milliard so'm bo'lgan "Ko'ksaroy avtomoll" savdo va ko'ngilochar markazining ishga tushirilishi bilan 6230 nafar aholi ish o'rniga ega bo'ladi.

Jami 11 gektar maydonni egallagan markaz qurilishi uchun 30 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb etilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu markaz foydalalanishga topshirilgandan so'ng uning yillik tovar aylanmasi qariyb 1,5 trillion so'm, yillik soliq tushumi esa 49,3 milliard so'm bo'lishi kutilmoqda.

Bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki qo'shni mamlakatlarda ham oyna ishlab chiqarish va unga ishlov berishga talab yuqori. Shu bois bu turdagi loyihalarni ishga tushirish import o'rnini qoplab qolmasdan, eksport imkoniyatlarini ham oshiradi. Jamiyat tomonidan qiymati 96 milliard so'm bo'lgan oynaga ishlov berish, steklopaket tayyorlash, plastik va alyumin romlar ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish uchun 6 million dollar to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritilgani ham bejiz emas. 2024-yilning birinchi yarim yilligida ishga tushiriladigan ushbu loyiha doirasida yillik 211,2 milliard so'mlik 220 ming kvadrat metr oyna mahsulotlari ishlab chiqariladi. Yillik soliq tushumi 10 milliard so'm bo'lishi kutilayotgan loyihada 250 nafar doimiy ish o'rni yaratiladi.

Mutaxassislarining kuzatishlariga ko'ra, yurtimizning barcha hududlarida qurilish materiallari talab yuqorilgicha qolmoqda. Talabni qondirish uchun aksariyat hollarda ayrim mahsulotlar katta miqdorda import qilinadi. Talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni mahalliyashtirish, ishlab chiqarishni



o'zimizda tashkil etish importni kamaytirib valyutani tejaydi, qo'shimcha qiymat yaratadi va asosiysi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham xizmat qiladi. Jamiyat tomonidan ushbu yo'nalishda penaplast, zichlagich (salnik), ohak va gazoblok ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari amalga oshirilmoqda. Jami 10,5 gektar maydondagi loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun 338,4 milliard so'm mablag' sarflanishi hisob-kitob qilingan bo'lsa, 5,5 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan.

Joriy yil yakuni va 2024-yilning birinchi yarim yilligida ishga tushiriladigan loyihalar doirasida yiliga 180 ming metr kub penaplast, 10 tonna zichlagich, 70 ming tonna ohak, 420 ming metr kub gazoblok ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Ya'ni, korxonalarda 260 nafar aholi bandligi ta'minlanib, yiliga 539 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbari boshlagan ishlarimiz bilan tanishib, loyihalarni qisqa muddatda ishga tushirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratishni ko'paytirishni ta'kidladilar, - deydi jamiyat mas'ul xodimi Hasan Xo'jaqulov. - Bildirilgan ishonch va aholi bandligini ta'minlash uchun qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, loyihalarning aksariyatini yil yakunigacha ishga tushirishni rejalashtirdik. Kelgusi yildan rejadagi yangi beshta loyihani amalga oshirishga kirishamiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Jamoat transporti soni yana ko'payadi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Yo'llarimiz biroq torligini aytmasak, yo'nalish juda qulay, yo'lovchilar ham o'zlarini yaxshi his qilmoqda, - deydi elektrobust haydovchisi Jo'rarmurod Hojiyev. - Havoning issig'ida yo'lovchilarning talabiga binoan sovitish konditsionerlarini ishlatamiz. Kuniga 650 ming so'm naqd pul tushumidan tashqari elektron hisob (ATTO)da ham to'lovlar qilinadi.

Korxonada haydovchilarning yo'lga chiqish oldidan tibbiy, jamoat transportining esa texnik ko'rikdan o'tishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. "Maroqand trans 777" MCHJ avtosaroyida jamiyat ta'sischi F.Jo'rayev Xitoy Xalq Respublikasidan olib kelingan 100 dona avtobusning texnik jihatlari, yo'lovchi tashishdagi imkoniyatlari haqida so'zlab berdi.

Korxonada 120 nafar haydovchi, 40 nafar texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis faoliyat ko'rsatadi. Haydovchilar ertalabki nonushta va tush-

likni korxonada hisobidan qilishadi. Ular ishga qarab, 2-4 million so'mdan maosh olishadi. Bundan tashqari, 120 ming so'mdan kunlik ish haqi to'lanadi.

Avtobuslarimiz har kuni ertalab soat 6:00 dan 11 ta yo'nalish bo'yicha yo'lga chiqadi, - deydi korxonada direktori Farhod Norqorayev. - Bir kunda 60 mingdan ziyod yo'lovchi tashiydi.

13 yildan buyon jamoat transportida ishlagan bo'lsam, hali bunaqa sharoit ko'rganim yo'q, - deydi haydovchi Axmed Mamadaliyev. - Yo'lovchilar ham mamnun, tushayotganida rahmat aytib ketishadi. Kuniga mingdan ziyod yo'lovchi tashiyman, qilayotgan ishimdan o'zim ham xursandman. Endi xorijga pul ishlash uchun borishim shart emas.

"Maroqand trans 777" MCHJ xitoylik hamkorlar bilan yana 37 million dollar evaziga 250 ta avtobusga shartnoma qilgan. 2024-yilda 150 ta elektrobust va gaz bilan harakatlanuvchi 100 ta avtobus olib kelinadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Mastura Shomurodovani Paxtachida shunday atashadi. Bu bejiz emas. Yigirma yildirki, hududning obodligi, mahalladoshlarining tashvishi bilan yashayotgan jonkuyar va tashabbuskor ayol mahalladagi yoshu qarining mehrini, e'tiborini qozongan.

"Gulobod mahallasining onasi"

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining mahalla tizimiga qaratgan e'tibori sabab, yurtimizning chekka hududlari ham obod bo'lmoqda. Opa raislik qilayotgan Gulobod mahallasi ikki yildan buyon tumanda eng namunali mahalla sifatida e'tirof etiladi. Hozirda bu obod maskandagi 506 ta xonadonda 2423 nafar turli millat vakillari istiqomat qiladi.

Prezidentimiz qaysi sohada gapirsa, rahbarlar eng quyi tizim bo'lgan mahallaga diqqat-e'tiborini qaratyapti, - deydi M.Shomurodova. - Xususan, "Biz ko'p tizimlarni mahallaga tushiryapmiz. Mahalla - davlatchiligimizning zamini. Agar 9 ming 400 ta mahalla tinch bo'lsa, yurtimiz tinch bo'ladi. Shuning uchun mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlarimizni qat'iy davom ettiramiz", deganlarida mahalla raisi sifatida ish boshlagan kezarimdagi qiyinchiliklar ko'z oldimdan o'tdi. Bugun biz, mahalla raislariga yaratib berilgan sharoit va imkoniyatning bahosi yo'q aslida.

Mastura opa yaqin besh yilda aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandligini ta'minlash borasida ibratli ishlarni amalga oshirib, mahalladoshlari ishonchini qozondi. Xususan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini hal etish maqsadida mahalla qoshida tikuvchilik sexi tashkil etilib, ijtimoiy daftarga kiritilgan 10 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Mahalla hududida maishiy xizmat turlari ko'paydi. Sartaroshxona, tikuvchilik sexi, avtomobillarga xizmat ko'rsatish markazi, mahallani toza hududga aylantirish uchun 20 ta zamonaviy chiqindi qutilari, 3 ta chiqindixona tashkil etildi.

Oilalarning tinch-totuvligida aholining bandligi, ro'zg'orining daromad manbaiga ega bo'lishi juda muhim, - deydi Mastura opa. - Buning uchun xonadonlardagi tomorqa xo'jaliklaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'ydik. Imtiyozli kreditlar evaziga aholi tomorqasida 35 ta issiqxona tashkil



etdik. Joriy yil 505 ta xonadondagi 303 gektar maydonda besh ming tonnadan ortiq meva-savzavot hosili olindi.

Fuqarolar yig'inida namunali oilalarni ko'paytirish va ko'chalarni obodonlashtirish maqsadida har yili "Eng obod ko'cha" va "Eng namunali xonadon" ko'rik-tanlovlari o'tkazilib, g'oliblar rag'batlantirib boriladi. Mahalla raisining tashabbusi bilan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi, otalar choyxonasi qurib bitkazildi, 3,3 kilometrlik ichimlik suvi quvuri tortildi, 1,6 kilometr avtomobil yo'li mukammal ta'mirlandi.

Mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida ushbu obodonchilik ishlarining tashabbuskori bo'lgan mahalla raisi Mastura Shomurodovaning xizmatlari e'tirof etildi.

Yurtboshimiz kamtarona mehnatlarini e'tirof etib, "Shuhrat" medalini taqdirlangani meni benihoya ruhlantirdi, - deydi Mastura Shomurodova. - Bu quyi tizimdagi ishlarining mamlakatimiz ravnaqida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor, ishora va ishonch deb bilaman. Endi bu sharaf va mas'uliyatni his etgan holda aholi farovonligi yo'lida yana-da ko'proq mehnat qilishni o'z oldimga maqsad qildim.

S.MARDIYEV.

“Samarqand olmasi” Samarqandga qaytarildi

Tabiat ixlosmandlariga tanish bo'lgan Orif Gulxaniy uy-muzeyi jamoasi ko'p yillardan buyon ajoyib an'anani davom ettirib kelyapti. Har yili viloyatimizdagi ta'lim dargohlari-ga “Samarqandni gulga burkaylik! 1+10” aksiyasi hamda “Har bir o'quvchi o'z guliga ega bo'lsin” yosh gulsevarlar harakati doirasida uy-muzeyda parvarishlanayotgan gullar va gul urug'lari tarqatildi.

Joriy yilda ham “Bog'i Gulxaniy” tomonidan ushbu xayriy tashabbus asosida, o'quv muassasalari, korxonalar va tashkilotlarga gul va gul urug'lari tarqatildi.

Jumladan, tadbir doirasida viloyatimizdagi 7 ta tuman maktab-gacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli ta'lim dargohlariga 8 ming-ta xonaki o'simliklar, 161 mingta o'simlik ko'chatlari yetkazib berildi. Bu ko'chatlar bilan maktablardagi o'quv xonalarida yashil burchaklar tashkil etildi.

- Yashillik targ'ibotini kengaytirish maqsadida bog'dagi navlarni ko'paytirishga harakat qilyapmiz, - deydi Orif Gulxaniy uy-muzeyi direktori Muqimjon Oripov. - Joriy yil Boysun tumanidan “Samarqand olmasi” va “Sohibi uzum” navini keltirib ekdik. Aslida ushbu navlar Samarqandda mashhur bo'lgan. Bu uning nomidan ham ma'lum. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida bu nav haqida ma'lumotlar bor. Ushbu olma va uzum navlarini yana o'z vatani -

Samarqandda ko'paytirishni maqsad qilganmiz.

Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limlari, “Zarafshon”, “Самаркандский вестник” hamda “Ovozi Samarqand” gazetalarini tahririyatlari hamkorligida o'tkazib kelinayotgan ushbu yashil tadbir aksiyasida shu kungacha “Orif Gulxaniy” bog'ida parvarish qilingan 600 mingdan ko'proq gul va o'simlik urug'i tarqatildi.

- Aksiyadan maqsad yoshlar qalbida Vatanga, ona tabiatga muhabbat, mehnatga rag'batlantirish, o'zi o'qiyotgan muassasa va maskanlarni ko'kalamzorlashtirish hamda gulzorlar barpo etishga havas uyg'otishdir, - deydi “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarini bosh muharriri, senator F.Toshev. - Ular o'z ta'lim dargohlarida nihollarga g'amxo'rlik qiladi, ko'kalamzorlashtirish ishlarida ustozlariga yaqin ko'makchiga aylanadi. Atrofnii toza tutish, obodonlashtirish kabi ezgu fazilatlar shakllanadi.

S.MARDIYEV.



“Geoparalar” nazariyasi asoschisi

va dunyo tan olgan geograf

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti geografiya va tabiiy resurslar kafedrasining sobiq professori, geografiya fanlari doktori Lapas Alibekov hayot bo'lganida 85 yoshni qarshilardi.



Lapas Alibekov o'z tadqiqotlari natijasida birinchi bo'lib O'rta Osiyo tog' va tekislik landshaftlari o'rta-dagi o'zaro tabiiy geografik ta'sir mexanizmlari, tadbiriy bog'liklik hamda aloqalari, ularning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishi borasidagi qonuniyatlarni ochib berdi. Olim tomonidan O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasiga xos bo'lgan tog'-tekislik juftligiga nisbatan “geopara”, ya'ni “qo'shaloq komplekslar”, degan tushuncha ilmiy

Lapas Alibekov 1938-yilda Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi Oqbulog' qishlog'ida tug'ilgandi. Tog'ning farzandi emasmi, yoshligidan tog' va tekislik, vo'ha va vodiylar, cho'l va sahralarga oshufta ko'ngli geografiyaga oshno bo'lib ulg'aydi. O'rta maktabni a'lo baholarga tamomlagach, 1955-yilda Samarqand davlat universiteti biologiya-geografiya fakultetining geografiya bo'limiga o'qishga kirdi.

1961-yil universitetni a'lo baholarga tugatgach, tabiiy geografiya kafedrasiga assistentlikka qabul qilishdi. Ustozlari uni ishga olib, yangilashmagani edi. Ilmga chanoq tadqiqotchi Lvov davlat universiteti professori Kalenik Gerenchuk nazariga tushdi. Uning rahbarligida “Zarafshon tog'lari va yondosh tekisliklarning landshaftlari va yer tiplari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

So'ngra Samarqandga qaytib, o'zi o'qigan fakultetda ilmiy va pedagogik faoliyatini davom ettirdi. Moskva davlat universiteti tabiiy geografiya kafedrasining professori Nikolay Gvozdetkiy rahbarligida “Tog' va tekislik landshaftlarining o'zaro ta'siri (O'rta Osiyo misolida)” mavzusidagi doktorlik ilmiy tadqiqotini olib bordi va 1988-yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

muomalaga kiritildi. Shuningdek, O'rta Osiyo mintaqasi misolida tog' va tekislik o'rtasida modda va tirik organizmlarning aylanib yurish qonuniyati ochib berildi.

Ustoz o'zining ilmiy faoliyatida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tabiati va undan samarali foydalanish, muhofaza qilish borasidagi masalalarni ko'tarib chiqdi. Shuni hisobga olib, 2002-2011-yillarda NATOning “Arid mintaqalarda cho'llanish jarayoni” dasturida xalqaro ekspert sifatida faoliyat olib bordi.

Lapas Alibekovning 400 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari respublikamiz, qolaversa, dunyoning turli mamlakatlaridagi nufuzli ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Olim ilm-fanga qo'shgan hissasi va kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari uchun 2000-yilda “O'zbekiston Respublikasi fan arbobi” unvoni bilan taqdirlangandi.

S.ABBOV, Samarqand davlat universiteti professori. A.RAVSHANOV, universitetning geografiya va ekologiya fakulteti dekani.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

“ORIENT FINANS”

XATB —

“YASHIL ENERGIYA” ni RIVOJLANTIRISHGA KO'MAKLASHAMIZ!

“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki mamlakatimizda 13 yildan buyon bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bank respublika moliyaviy xizmatlar bozorida namunali faoliyat ko'rsatib, yetakchi banklar qatoridan joy olgan.

Bankimiz yuridik va jismoniy shaxslarga “Yashil energiya”ni rivojlantirish uchun quyidagi yangi kredit turlarini taklif etadi:

Yuridik shaxslar uchun

“OFB GREEN ENERGY” krediti:

Yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lishi va faoliyat muddati bir yildan kam bo'lmashligi;

Kredit miqdori – cheklanmagan, taqdim etiladigan ta'minot miqdoriga qarab kredit ajratiladi;

Foiz stavkasi – yillik 21 foiz;

Boshlang'ich badal – mavjud emas;

Muddati – 60 oy;

Ta'minot taqdim etishi;

Ijoiy kredit tarixiga va likvidli balansga ega bo'lishligi lozim.

Jismoniy shaxslar uchun

“GREEN” iste'mol krediti:

Foiz stavkasi – yillik 20 foiz;

Boshlang'ich badal – mavjud emas;

Muddati – 72 oy;

Kredit tarixida bir oydan ortiq muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmashligi;

Doimiy daromad manbaiga ega bo'lishligi;

Ta'minot taqdim etishi;

Maksimal kredit miqdori bir jismoniy shaxs uchun 100 million so'mdan oshmasligi lozim.

Bank manzili: Samarqand shahri Mirzo

Ulug'bek ko'chasi, 48-uy.

Murojaat uchun telefon:

+99878-230-80-00 (21-20;21-32)

Xizmatlar litsenziyalangan.

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Payariq tumanidagi “CHELAK SAVDO SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining 2021-2022-yilgi yillik faoliyati to'g'risidagi umumiy yig'ilishi 2023-yil 29-sentabr kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

KUN TARTIBIDA:

- 2021-2022-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobot.
- 2023-yil moliyaviy-xo'jalik biznes-dasturini tasdiqlash.
- “SHAMSHOD ELITA SAVDO” unitar korxonasini ixtiyoriy tugatish to'g'risida.
- “O'RTA-SAYDOV” unitar korxonasi direktorini tayinlash to'g'risida.
- Boshqa masalalar.

Manzil: Chelak shahri Istiqlol ko'chasi, 132-uy. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Raxmonov Ganiga (2014-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xalmurzoyev Abdualali Tursunovichga (2021-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Sulaymanov Baxronga (2022-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Saloxitdinova Maxfiza Kamalovna (2021-yil 31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Abbasova Musinaga (2012-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Sultanov Melikga (1996-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Karimov Ikromjon Xakimovichga (2010-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum O'roqov Siroj Xayrulloevichga (2018-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Ismailov Nemat Abdullayevichga (2021-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Kadirov Djabarga (2021-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

BEKOR QILINDI
Sotuvchi Muxiddinov Mashrab Muxiddinovich va sotib oluvchi Umarov Rustam Faxridinovich o'rtasida Samarqand shahri “Adolat” MFY, Beruniy ko'chasi, 42-uy, 35-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2020-yil 30-oktabrda tasdiqlanib, 202001714002189 raqam bilan reestrda kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

TOPGANGA MUKOFOT!
Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan Uralov Tashpulatga (marhum) berilgan pensiya guvohnomasi Qo'shrabot tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.
Telefon: +99891-532-55-35.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi diplomdan keyingi ta'lim fakulteti otorinolaringologiya kafedrasiga professori Umrullo Lutfullayevga turmush o'rtoqi, 1-davolash ishi fakulteti dekani G'ayrat Lutfullayevga onasi Yoqutoy RAHMONQULOVAning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

↓ O'qing, qiziq

ADIBLAR VA
KITOBLAR

Garri Potter haqidagi asarlar muallifi Joan Rouling baʼzan ijodga shu qadar berilib ketardiki, ilhom kelganda, oshxona, kafe va restoranlarda ham voqealarni qogʻozga tushiraverardi. Shu bois u qogʻoz va qalamini hamisha oʻzi bilan birga olib yurardi.

Alan Aleksandr Miln oʻzini bolalar yozuvchisi deb hisoblamas edi. Ammo bolalarga atalgan ertaklarini ham katta masʼuliyat bilan yozardi. Shu bois uning sevimli qahramoni Vinni-Pux kattalardek fikrlab soʻzlaydi. Vinni-Pux hatto shoirarga ham maslahat berib, shunday deydi: - She'r yozishning eng oson yoʻli soʻzlarni oʻz ixtiyoriga qoʻyib berish. Ular oʻzlari xohlagan joyda tursa, ana shu she'r bo'ladi. Bu fikrga birorta ham shoir e'tiroz bildirmasa kerak.

Samuil Marshakning koʻpgina she'rilarida olov haqida gap ketadi. Bu bejiz emas. Shoirning bolalik davrida uylarida yong'in chiqqan. U pardalarning, jihatlarining qanday yonishini oʻz koʻzlarini bilan koʻrgan. Xotiralarida yozishicha, uni olov ichidan onasi olib chiqqan. Balki shuning uchundir, "Yong'in", "Mushukning uychasi", "Noma'lum qahramon haqida hikoya" kabi she'rilarida olov bilan bogʻliq voqealar qalamga olinadi.

XIX asrda shoir va adiblarning soʻz xazirasi 100 ming atrofida boʻlgan. Hozir esa 50 ming, 60 mingdan oshmaydi. Hozirgi oddiy odamlarning soʻz boyligi esa taxminan 10 mingta. Kam kitob oʻqish tilning qashshoqlashuviga olib keladi.

Hozir tilimizda qoʻllanadigan eng uzun soʻz "tetragidropiranilitetragidropiridipiridin", degan kimyoviy moddaning nomi ekan. Bu soʻz 51 ta harf bilan ifodalanadi. Ilgari eng uzun "mexanizatsiyalashirilmaganlar-danmiz", degan soʻz edi. Demak, bu boradagi rekord yangilanibdi.

Mashhur rus masalchisi Ivan Krilov maishiy hayotda unchalik ham ozoda boʻlmagan deyishadi. U taralmagan paxmoq soch bilan yurar, kiyimlari ham dog- dugʻ tegib, gʻijim boʻlgan holatda edi. Bu esa odamlarning kulgi va hazillariga sababchi boʻlardir. Kunlardan bir kuni uni maskaradga taklif qilishadi. Krilov bir tanish xonimdan: - Nima qilsam meni taniy olmaskinlar? - deb soʻraydi. Hazilkash xonim unga: - Yuvib, sochingizni tarab olsangiz, hech kim sizni tanimaydi, - deb maslahat beradi.

To'plovchi:
Xudoyberdi KOMILOV.

Abdulhamid Samad – 1947-yilning 5-avgustida Tojikiston Respublikasi Xatlon viloyati, Xovaling tumanida tugʻilgan. Turli nashrlarda adabiy xodim, bosh muharrir oʻrinbosari, bosh muharrir vazifalarida xizmat qilgan. 1993-yildan 2015-yilgacha Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi raisining oʻrinbosari sifatida faoliyat yuritgan. "Chinor shoxi", "Singan piyola", "Davr kosasi", "Maydon", "Oshiq aka...", "Kurash", "Quyuning qaytishi" kabi oʻttizdan ortiq kitoblar muallifi. Tojikiston xalq yozuvchisi A.Samadovning asarlari koʻp tillarga tarjima qilingan va adib dunyoning koʻzga koʻringan yozuvchilari asarlarini tojik tiliga oʻgirishda ham oʻzining munosib hissasini qoʻshgan.

QUYOSHNING QADRDONI

Shaharlik bolakay ilk bor dadasi bilan qiru adirlar quchogʻiga sayrga chiqdi. Ayni bahor edi. Hammayoq koʻm-koʻk, gullarga burkangan. Lekin osmonning har yer-har yeri bulutli. Bulutlar xilma-xil: oqish, koʻkimsir, gulobiy. Quyosh goh bulutlar ostiga yashirin, goho yana yuz koʻrsatib, issiq nurlar sochardi. Shu bois bir zum ularning boshiga soya tashlasa, bir zumda olam yorugʻlikka choʻmilardi.

Bolakay faqat kapalaklar orqasidan chopqillar, toshbaqayu xolmomolarni koʻrganidan zavqlanib, sakragani-sakragan, tabiatning turfa rangi va oʻyinidan hayratda edi. Axir, bir yer soya boʻlsa, ikki yuz-uch yuz metr nari yop-yorugʻ. Nega bunday? Sababini soʻrash uchun har xil gilyohlarni terish bilan band boʻlgan dadasi tomon chopardi. Ammo u dadasiga yetar-yetmas, quyosh yana chiqardi-yu, chor-atrof, nurga toʻlardi. Rang-barang kapalaklar uning atrofida parvoz qilib, goʻyo uni ham oʻyingga tortardi. Bolakay ularning ketidan chopqillar, baʼzan oʻt-oʻlanlarga qoqilib yiqilar, qah-qah urganicha maysa-gullar gilami ustiga agʻanardi.

Nihoyat ular tepalik boshiga yetdilar. Bolaning otasi toʻrxaltasini gulga gʻarq boʻlgan doʻlana shoxiga ilib, uning soyasiga oʻtirdi. Bolakay ham holdan ketib, baxmal maysalar uzra choʻzildi-yu, osmonga tikildi. Quyosh nurlari doʻlana shoxlari orasidan oʻtib, unga koʻz qisib, hazillashardi. Bu ham bolakayga quvonch bagʻishlardi. U oʻrnidan turib, moviy osmon tomoshasiga gʻarq boʻlib yotgan otasining yelkasiga qoʻlini qoʻyganicha soʻradi:

- Dada, Quyoshning koʻzi bormi?
- Bor, bolajinam, bor.
- Bola bir lahza xayolga choʻmdiyu keyin yana soʻradi:
- Nega men qayerga borsam, Quyosh ham oʻsha yerga boradi?

- Sening yolgʻiz qolmasliging uchun, bolajon, qoʻrqmasliging uchun, oyoqlaring oldini, butun olamni koʻrmoqliging, yiqilmasliging, sovgʻotmasliging uchun. Bilasanmi, Quyosh - odobli bola...

- Unday boʻlsa, men Quyosh bilan oʻrtoq boʻlaman.
- Yaxshi, dadasining polvoni, - lablariga tabassum yugurib dedi otasi.
- Dada, Quyoshga sen bilan oʻrtoq boʻlaman, deymi?
- Albatta, bolam.

Shaharlik bola shodligini ichiga sigʻdira olmay, oʻrnidan sakrab turdi-yu, oʻtloqlar ichra chopqillab, qoʻllarini Quyoshga choʻzganicha qichqirdi:

- Ey, Quyosh! Men sening joʻrang boʻldim, sen meni oʻrtoq qilasanmi?
- Hamma yer tinch, koʻm-koʻk, gullar ochilgan, yop-yorugʻ. Kapalaklar parvozi avjida. Ammo Quyosh jim. Sado chiqmaydi. Bolakay xijolat boʻldi:
- Javob bermaydi-ku? - dimogʻi kuyib pichirladi.

O'qituvchi
o'quvchisining bilimi
uchun talashsin

Ijtimoiy tarmoqlarda baʼzi oʻqituvchilarning dars talashib, gohida mushtlashib ketayotganligiga guvoh boʻlyapmiz.

"Mening darsim bir yarim stavka boʻlishi kerak, nega u kecha kelib, shuncha dars oladi, oʻtgan yili qoʻshib beraman, degan edingiz".

Bunday holatlar oʻqituvchiga yarashadimi? Nega ular fan olimpiadalari, turli koʻrik-tanlovlarda "Mening oʻquvchim bilimdon, sportchi, hammadan iqtidorli", deb talashmaydi. Achchiq boʻlsa-da, aytish kerak, ayrim fanlardan olimpiadaga boradigan oʻquvchi topolmay qolishyapti. "Sen borib kela qol, qatnashmasak, baribir qoʻyishmaydi", deyishadi. Natija esa shunga yarasha.
Husniddin XOLDOROV.

SHAMOL

*Hur-hur shamol, hur-hur shamol,
Hurullablar yur shamol.
Saratoning shashtiga,
Salqiningni sur, shamol.*

*Hur-hur shamol, hur shamol,
Qorli togʻdan kel, shamol.
Chilla taftin sovitib,
Orom boʻlib yel, shamol.*

*Hur-hur shamol, hur shamol,
Shabbodaga toʻl, shamol.
Osmon tandir qizdirar,
Salqin sabo boʻl, shamol.*

*Hur-hur shamol, hur shamol,
Yoz chillasi dur shamol.
Bahra berib borliqqa,
Boʻlgaysan surur, shamol.*

*Hur-hur shamol, hur shamol,
Rohatlari pur shamol.
Toldirmayin tanlarni,
Orom boʻlib kir, shamol.*

*Hur-hur shamol, hur shamol,
Xayolda huzur shamol.
Koʻksimizni toʻldirib,
Yelibgina tur shamol.*



FARAZ

*Shamolga dardini aytmoqchidayin,
Novdalar tebranan garang va sarxush.
Qilt etmas yaproqlar ekkandek boʻyin,
Ximichga tizilgan, bamisli behush.
Quyosh oʻt purkaydi, koʻzga tik boqib,
Ayni tush hattoki koʻz ochmoq mahol.
Qaylarga ketmoqda halovat oqib,
Koʻngilni kovlaydi jonsarak savol.
Titrab ochilgan saraton guli,
Quyoshni qarichlar ruhsiz va hushyor.
Quloqqa chalinmas chumchuq "chir-chir",
Hatto qarillamas qargʻalar beor.
Bu - sargʻish salobat, oltin rang emas.
Behuda daldadan ne foyda, baror.
Bu bir meʼyor erur qilmoqqa faraz,
Ne qadru qimmatga sazovor bahor...*

Suyundik Mustafo NUROTOIY.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 423 nusxada chop etildi. Buyurtma 488. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

D.TOʻXTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

